

Date: 29th October-2025

ATLAS RANGLAR JILOSI

Utepova Aliya Altinbekovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum

“Tikuvchilik” yo‘nalishi ishlab chiqarish ta’limi ustasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy matolari turlari, kelib chiqish tarixi, tarkibi, tayyorlanish jarayoni, naqshlarini to‘qilish bosqichlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Respublikamizda milliy qadriyatlarimiz targ‘ibotini kuchaytirish maqsadida har yili sentyabr oyida “Xon atlas” festivali oyligi o‘tkazilishi dolzarbligi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy libos, atlas, adras, naqsh, festival, kiyinish, kiyim, ko‘ylak, moda, madaniyat.

Atlasning eng yoqimli xususiyati - uning jilosi

Xon atlas - bu nafaqat mato, balki o‘zbek xalqining ruhini, madaniyatini va nafis didini ifoda etuvchi bebaho merosdir. U asrlar davomida o‘zining yorqin ranglari, jilosi va nafis naqshlari bilan xalqimiz hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

Xon atlas so‘zining ma’nosi - “xon” so‘zi matoning qimmatli va shohona ekanini, “atlas” esa ipakning silliq va yaltir yuzasini anglatadi. Shuning uchun ham xon atlas qadimdan boylik, go‘zallik va nafosat timsoli hisoblangan.

Xon atlasning tarixiga nazar tashlasak, ildizlari juda chuqur. Arxeologik topilmalarga ko‘ra, ipak to‘qish an‘analari O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi davrlardayoq mavjud bo‘lgan. Ammo “xon atlas” nomi bilan tanilgan ipak matolar XVII–XIX asrlarda Farg‘ona vodiysi, xususan Marg‘ilon, Buxoro, Qo‘qon va Samarqand shaharlarida keng tarqalgan. Ayniqsa, Marg‘ilon shahri bu borada markaz sifatida tanilgan. Deyarli har bir oila ipak to‘qish bilan shug‘ullangan. Xon atlas o‘sha davrda asosan amaldorlar, xonlar va saroy ayollari uchun tayyorlangan. Shu sababdan unga “xon atlas” - ya’ni xonlar kiyadigan atlas deb nom berilgan.

XIX asrda Rossiya va Xitoy bilan savdo aloqalari kengaygani sababli Marg‘ilon ipak matolari butun dunyoga tanildi. Xon atlas xalqaro ko‘rgazmalarda taqdim etilib, o‘zining nafisligi va tabiiy rangi bilan g‘arb mutaxassislarini hayratda qoldirgan.

Xon atlas yaratish - bu san‘at, sabr-toqat va nozik did talab qiladigan jarayon. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi: *Pilla yetishtirish va ipak olish*.

Ipak qurti (pilla) tut bargi bilan boqiladi. U o‘z atrofiga yupqa ipak ip o‘raydi. Shu pillalar quritilib, iplar ajratib olinadi. *Ipni yuvish va tarash*. Tabiiy pilladan olingan iplar iliq suvda yuvilib, qo‘lda cho‘ziladi. Bu iplarning tiniq va silliq bo‘lishini ta’minlaydi. *Bo‘yash (abrband usuli)*. Bu bosqichda iplar turli o‘simliklardan olingan tabiiy bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Masalan, anor po‘stidan qizil, isiriqdan sariq, piyoz po‘stidan jigarrang bo‘yoq olinadi. *Nafis naqsh yaratish (abr naqsh)*.



Date: 29th October-2025



Bu bosqich xon atlasning eng oʻziga xos qismi. Iplar turli joylaridan bogʻlab, boʻyoqqa botiriladi. Shu yoʻl bilan har bir ipda ranglar toʻlqinli, oʻzaro uygʻun naqshga aylanadi. *Toʻqish jarayoni*. Ipak iplar toʻquv dastgohlariga tortiladi. Usta ayollar har bir santimetrni diqqat bilan toʻqiydi. Bir dona atlas mato tayyorlash uchun bir necha kun, baʼzan haftalar kerak boʻladi. *Yuvish va yumshatish*. Tayyor mato sovuq suvda yuviladi, keyin quyoshda quritilib, ipak jilosi bilan charaqlab chiqadi. *Silliqlash va jilolash*. Atlasning eng yoqimli xususiyati — uning jilosi. Shu sababli mato maxsus yogʻoch valiklar bilan silinib, silliq va yaltir holatga keltiriladi.

Xon atlasda ishlatiladigan ranglar bejiz tanlanmaydi. Ularning har biri oʻziga xos falsafiy maʼnoga ega: Qizil - muhabbat, baxt va quvonch ramzi. Sariq-quyosh, farovonlik va boylik timsoli. Koʻk-osmon, sadoqat va ishonch. Yashil-tabiat, tinchlik va hayot. Oq-poklik va ezgulik belgisi. Shu tariqa har bir atlas oʻz ichida bir hikoyani, bir ruhiy holatni ifodalaydi.

Xon atlasning madaniy ahamiyati. Xon atlas asrlar davomida oʻzbek xalqining milliy liboslari, marosimlari va urf-odatlarida muhim oʻrin tutgan. Ayniqsa, toʻy liboslari, bayram kiyimlari va tantanali marosimlarda atlas matolari koʻp ishlatilgan. Atlasdan tayyorlangan koʻylaklar, yopinchiqlar, roʻmol va belbogʻlar har doim ayollar goʻzalligini yanada ajratib koʻrsatgan. Oʻzbek ayoli uchun atlas-bu nafaqat kiyim, balki gʻurur, ayollik, iffat va goʻzallik ramzi boʻlgan.

Respublikamizda atlas va adras targʻibotini kuchaytirish, oʻzbek milliy liboslariga mehr uygʻotish va ommalashtirish, zamonaviy kiyinishda oʻzbekona sharm-hayo meʼyorlarini targʻib qilish, oʻzbekona kiyinish madaniyatini yuksaltirish maqsadida har yili sentyabr oyida “Xon atlas - festivali” oʻtkazilib kelinmoqda. “Xon atlas - festivali” nafaqat tashqi koʻrinish balki milliy oʻzlikni anglash, oʻzbekona qadriyatlarni hurmat qilish va yosh avlodga ulugʻ ajdodlarimiz merosini yetkazish kabi muhim maqsadlarga ham xizmat qilmoqda.

Toshkent shahar oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2025-yil, 9-sentyabrdagi 235-sonli xatiga asosan, Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumi oʻquvchilari ishtirokida “Atlas-ranglar jilosi” nomli Xon atlas festivali tashkil etildi. Ushbu festival milliy qadriyatlarimizni yanada targʻib qilish, anʼanalarimizni asrab-avaylash hamda milliy liboslarimizning kundalik hayotimizda tutgan oʻrnini mustahkamlashga qaratilgan.

Date: 29th October-2025



Xulosa qilib aytganda, xon atlas - bu faqatgina ipak mato emas. U xalqning yuragi, mehnati va tarixidir. U har bir ipida asrlar davomida to'plangan tajriba, sabr-toqat va mehr mujassam.

Bugungi kunda xon atlas milliy g'urur timsoli, o'zbek madaniyatining durdonasi va dunyoga tanilgan "O'zbekiston" nomining go'zal elchisi bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q.M., Nigmatova F.U., Gaipova N.S. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va texnologiya asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, TDPU. 2007-yil
2. Otamurodov O.B., Kiyim turlari va ularning kelib chiqishi haqida. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2022.
3. Kasbiy fanlar metodikasi. Ma'naviy-marifiy, ilmiy nashr. 2018-yil, aprel 4-son.
4. Magzumov P.T. va boshqalar. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O'qituvchi, 1991.
5. G.K.Hasanbayeva. "Kiyim modelini ishlash va loyihasini tayyorlash". Toshkent. O'qituvchi. 1990.

